

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING NUTQ KAMCHILIKLARINI  
BARTARAF ETISH METODIKASI**

**Xolova Dilovar Faxridinovna**

*Buxoro Davlat Pedagogika Instituti*

*Ta’lim va tarbiya nazariyasi metodikasi*

*( maktabgacha ta’lim) 2- kurs magistranti*

*xolovadilovar@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutqining to’liq rivojlanmaganligi tushunchasi bola nutqi rivojlanishining aniq holatidan kelib chiqqan holda, o’zining etilogiyasi bo'yicha nutq rivojlanmaganligining turli xil ko'inishlariga yagona pedagogik yondashuv imkoniyati haqidagi ilg‘or nuqtai nazar asoslanadi. Nutqning to’liq rivojlanmaganligida nutqning kechroq paydo bo'lishi, lug‘atning kambag‘alligi, agrammatizm, talaffuz kamchiliklari kuzatilishi haqida fikr, mulohazalar va uni bartaraf etish usullari keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Maktabgacha ta’lim, yagona pedagogik yondashuv, ilg‘or nuqtai nazar, agrammatism , talaffuz, pedagogik mahorat, profeesional ta’lim-tarbiya, nutqiy nuqsonlar , ilg‘or tajriba.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, единый педагогический подход, перспектива, аграмматизм, произношение, педагогическое мастерство, профессиональное образование, дефекты речи, передовой опыт.

**Key words:** Preschool education, unified pedagogical approach, perspective, agrammatism, pronunciation, pedagogical skills, vocational education, speech defec, best practices.

Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar zamirida Respublikamiz taraqiyotiga asos qilib olingan bu borada muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning —... Yosh avlodni barkamol, ma’naviy va jismonan sog‘lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalash, ularni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘s sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimiz bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz, - degan mulohazalarga javoban shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, pedagogika sirlarini urganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishiga tayyorlab borish masalasi ta’lim jarayonida asosiy muammolardan biri bo‘lib sanaladi.

O’zbekiston Respublikamizning “Yangi O’zbekistonning 2022–2026-yillarga mo’ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi president farmoni imzolandi . Bugun Yangi O’zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga

aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamaslikning iloji yo‘q.

Globallashuv jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidan boshlanishi bolalar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimi jamiyatimiz hayotida muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari va 2017 yil 7 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, «Yoshlarga oid Davlat dasturi», yangi tahrirdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktyabrdagi «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida»gi O‘RQ-576-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-6097-son Farmonlari mamlakatimizda ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Xususan, ta’lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu - «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi. Ta’lim sohasiga tegishli me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimining rivojlanishi dinamikasi ta’lim jarayonini tashkil etish, bolaning mustaqil shaxs sifatida erkin faoliyat ko’rsatishni ta’minalash maqsadida bir qator muhim izlanishlar olib borish, jiddiy qadamlar qo‘yishni taqozo qilmoqda.

Bu o‘rinda shuni aytish lozimki, maktab yoshdagagi bolalarni maktab ta’limiga nutqiy tayyorlash texnologiyalarini o’rgatish orqali bolalarning og’zaki va yozma nutqni rivojlantirishga, so’zamon bo’lishga, o’z fikrini mustaqil bayon qilishga erishish asosiy vazifalarimizdan biridir .

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni nutqini o’stirish jarayonida uchraydigan muammolarni bartaraf etishda metodik yondashuv zaruriyati mavjud .Shu maqsadda nutq kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan tayyorlov o‘yinlaridan, maktab yoshdagagi bolalarni maktab ta’limiga nutqiy tayyorlash texnologiyalaridan samarali foydalanish bolalar faolligini oshirishga, lug’atini boyitishga, ona tilimizni mukammal o’zlashtirishga xizmat qiladi.Respublikamizda alohida yordamga muxtoj bolalar va o’smirlarning ta’lim mazmunini takomillashtirish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim

ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida: 2008-yil

11-iyuldaggi O'RQ-162-sonli "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuniga muvofiq yangi tahrirda qabul qilingan.

Ushbu Qonun nogironlarga huquq va erkinliklarni ro'yobga chiqarishda O'zbekiston Respublikasining boshqa barcha fuqarolari bilan teng imkoniyatlarni ta'minlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklashlarni bartaraf etish, nogironlarni to'laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek o'zlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-sharoit yaratish maqsadida davlatning nogironlarga oid siyosatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida aholi salomatligini muhofaza qilishga, nogironlikning oldini olishga va nogironlarning jamiyat bilan uyg'unlashib ketishi uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan tadbirlar amalga oshiriladi. e'tibori davlat tomonidan ortib bormoqda. O'zbekistonda nogironlami ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonunda o'z ifodasini topadi

Alovida ta'limga muhtoj bolalar ilk yoshdan tashhis qilish , ta'limga tayyorlash, psixologik, tibbiy-pedagogik yordamlami kompleks yo'naltirilgan holda sifatli tashkil etish, meyoriy-huquqiy hujjatlami takomillashtirish, umumta`lim davlat standartlarini maxsus ta`limning barcha yo'nalishlariga moslashtirish ishlari jadal olib borilmoqda. Jahon tajribasida imkoniyati cheklangan bolalarga o'z imkoniyat va qobiliyati darajasida maxsus yoki umumta`lim muassasalarida ta'lim berish, sog'lom tengdoshlari orasida integratsiyalash tajribalari Yurtimizda ham keng targ'ibot qilinmoqda. Nutqning inson faoliyati va rivoji uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini takidlagan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga nutq a'zolarining harakati aniq va to'g'ri rivojlanishini zarur.

Nutqdagi asosiy funksiyalaming buzilishi kishi faoliyatiga albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning faolligini pasaytiradi, salbiy psixologik vaziyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Masalan, ayrim so'zlarning noto'gri talaffuz etilishi kishini noqulay vaziyatga solib qo'yishi bilan birga uni atrofdagilar bilan muomala qilishda qiyab qo'yadi, u gapirganda o'z fikrini to'liq anglata olmaydi Olimlar nutq nuqsonini rivojlanmasligini turli aspektlarda tekshirib tadqiqot ishlarini olib borishgan. bugungi kunda har bir maktabgacha ta'lim muassasasida logopedlar mavjud bo'lib bolajonlarda uchraydigan nutq nuqsonlari ustida muntazam korreksion ishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki Vazirlar mahkamasining 2019 yil 13- may 391- sonli qarorida Umumiy tipdagagi davlat va nodavlat MTT larda rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan ishslash texnikasi , usullari , shakllari va ularni rivojlanishini yo'lga qo'yish to'g'risida salmoqli vazifalar belgilab berildi.

Respublikamizda yosh avlodni jismonan sog'lom, aqlan teran, ma'naviy yetuk, ya'ni xar tomonlma rivojlangan komil inson bo'lib yetishishiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Alovida yordamga muxtoj bo'lgan bolalarni sog'lomlashtirish, ulami sog'lom tengdoshlar qatoriga qo'shish, ijtimoiy moddiy jixatdan qo'llab quvvatlash, mustaqil hayotga tayyorlash barcha tengdoshlari qatorida talim tarbiya berish, korreksion pedagogik, psixologik yordamni ko'rsatish kabi masalalar davlat dasturida alovida qayd etilgan.

**Jumladan**

- Rivojlanishida yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan ishslash texnologiyalari , usullari va shakllari ularning psixofizik rivojlanish xususiyatlar o'ziga xos imkoniyatlari va sog'lig'i xolatidan kelib chiqqan holda
- Har tomonlama rivojlangan barkamol inson shaxsini shakllantirish davrimizning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Vatanimizning kelajagi bugungi yosh avlodning ilmiy salohiyati, istedodi, mustaqil fikrlashiga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham bilimdon, keng dunyoqarashga ega barkamol va ma'naviy yetuk shaxslami tarbiyalab yetishtirish vazifasi, davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalish darajasiga ko'tarilgan.

Bizning ustivor siyosatimiz yosh avlodni aqlan teran, manan yetuk, jismonan sog'lom, har tomonlama rivojlangan komil, zukko inson qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bugungi kunda alovida yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarga nisbatan g'amxo'rlik, ulaming xuquqlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya jarayonini bu bolalarning ehtiyojini va qobiliyatiga mos ravishda tashkil etish, sog'lom jamiyatga tenglashtirish ishlari o'ta dolzarb masalalardan biridir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Тошева Н. Т. Педагогико-психологические подходы к развитию познавательной деятельности учащихся начальной школы //Педагогические науки. – 2011. – №. 6. – С. 44-46.
2. Тошева Н. Т. Организация учебно-познавательных ситуаций начальных классов на основе дидактико-психологических подходов //Новое слово в науке и практике: гипотезы и апробация результатов исследований. – 2017. – С. 42-46.
3. Тошева Н. Т. Бошланғич синф ўқувчиларининг билиш фаолиятини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари Fan va jamiyat. – Нукус, 2020. –№2. – Б. 109-111
4. Tosheva Nurzoda Tos temirovna. Education process directed to the person as the basis of increasing knowing activity of pupils. // the advanced science open access journal. United States, 2013. №6. . Стр. 83-85.

6 –TOM 2 – SON / 2023 - YIL / 15 - FEVRAL

5. MA'RIFAT newspaper "Pre-school education: yesterday, today, tomorrow"  
Nasiba Erkhonova

6. M.Y. Ayupova, Sh.D. Aripova LOGOPEDIYA “ TO'G'RI TALAFFUZ QILAMIZ VA YOZAMIZ ”

7.“Tayyorlov guruh o'qituvchilari uchun nutq o'stirish mashg'uloti ishlanmalari”  
(metodik qo'llanma) Tuzuvchilar: F.R.Qodirova, M.Fayzullaeva,M. Rustamova.T.2010.

8. K.Shodieva “Maktab yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish”  
Toshkent.1995.